



## TARIX FANINI O'QITISHNING MUHIM SABABLARI

**Muratov Jamshidshoh Mahmut o'g'li.**


*Angren shahar XTB ga qarashli*

*26-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola maktabda tarix fanini o'qitishda zarur bo'ladigan jarayonlarni tushuntirib berishga harakat qiladi. O'quvchilarni ta'lim olishi uchun ma'naviy muhitni yaratish jarayoni tashkil etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Tarix, insoniy fazilatlar, xalqlari tarixi, kasb-hunar, milliy ong.*

Tarix fanini o'rganish o'quvchilarning bu tarixiy an'analar va oliyjanob fazilatlar manbalarini, ular mustahkam zaminga egaligini, tarixan tarkib topganligini, avloddan avlodga o'tib, mazmunan boyib borganligini, jamiyatning ravnaqi va farovonligi, insonlarning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qilib kelganligi, ularni bundan keyin ham asrab-avaylab davom ettirish, avlodlarimizning insoniy fazilatlariga sodiq bo'lish o'zlarining muqaddas burchlari ekanligini anglab olishlariga yordam beradi. Tarixini o'rganish asosida o'quvchilar bu o'lka xududida qadimdan bir necha o'nlab millat va elatlar yonma-yon yashab kelganligi, ular mahalliy va ajnabiy bosqinchilar zulmiga qarshi birgalikda kurash olib borganligi, o'zbeklar hamisha boshqa millat va xalqlarga alohida hurmat bildirganligi, xalqlar qardoshligi va do'stligini muqaddas, deb ardoqlaganligi, o'zbek xalqining bu tabarruk an'anasi umuminsoniy qadriyatlarga bebaho xissa bo'lib qo'shilganligi, millatlararo munosabatlar keskinlashib turgan hozirgi paytda bu an'ananing hayotiyliги yana bir bor sinovdan o'tayotganligini anglab oladilar. Shuningdek, mustabid hukmdorlar va bosqinchilar hokimiyati yillarida xalqimizning moddiy-ma'naviy boyliklari va go'zal an'analari oyoq-osti qilib toptalgan, shaxsga sig'inish va turg'unlik yillaridagi tanglik, paxta yakkahokimligi, kimyoviy moddalarning haddan tashqari ko'p qo'llanilishi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy siyosiy rivojlanishiga to'sqinlik qilganligini, ekologik muhitdagi nomutanosibliklarga, Orol fojiasiga, atrof muhit, yer-suv va havoning ifloslanishiga olib kelganligini, odamlarning sog'ligigagina emas, balki irsiyatga ham ta'sir ko'rsatayotganligini o'quvchilar tushunib olishi, ularning hozirgi ekologik muammolarni hal qilishda, jumhuriyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini mustahkamlashda faol ishtirok etishini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish o'quvchilarni avlodlarimizning ko'p ming yillik madaniy va ma'naviy merosi, ularni jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan faxrlanishga, milliy iftixor tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi.





Shunday qilib, Tarixi fanni o'qituvchilari o'quvchilarni milliy ongini o'stirishda, o'zlikni anglashida, ularni siyosiy madaniyatini oshirishda, mustaqil respublikamizning ijtimoiy faol va ma'naviy barkamol kishilarni haqiqiy inson, vatanparvar qilib tarbiyalashda juda katta imkoniyatlarga egadir.

Professional ta'limga asoslangan kasb- hunar maktabda tarixi fanini o'qitishning bu imkoniyatlaridan samarali foydalanish o'qituvchiga, uning mazkur tarixning yangilangan mazmunini, uni o'qitish uslubiyatini mukammal bilishiga, ta'lim va tarbiya ishlarini ilmiy asosda uyushtira olishiga bog'liqdir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanining asosiy maqsadi eng qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan Vatanimiz va jahon tarixiga oid eng muhim voqealar bilan o'quvchilarni tanishtirish, ularni O'zbekiston va jahon xalqlarining madaniy va ma'naviy merosiga, ilg'or an'alariga, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk merosimizning davomchilari hamda uni boyituvchilari bo'lmish munosib vorislarni tarbiyalashdan iborat. Tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarga tarixdan puxta bilim berish, ularni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda professional ta'lim tizimida o'qitiladigan tarix kursining maqsadini, ta'lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, metod va usullarini hamda tarix o'qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi.

Mustaqillik sharofati hamda ilm- fandagi o'zgarishlar ma'naviy merosimizni tadqiq etish sohasida e'tiborli yutuqlarga erishishimizga keng yo'l ochib bermoqda.

Madaniy merosimizni asrab-avaylash, uni kelajak avlodga to'liq etkazish, albatta, muhimdir. Shuning uchun 2016-yilning 30-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatning yetakchi olimlari, ziyolilari, akademiklari bilan uchrashib, ular bilan ilm-fanni yanada rivojlantirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish yuzasidan suhbatlashib, kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, funtamental yo'nalishlarni rivojlantirish, akademiklar maktabini yaratish, yetakchi olimlar salohiyati va tajribasidan samarali foydalanish yuzasidan takliflar berib, bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilayotganini, zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin ekanini takidlab o'tdi. Bu esa tarixni o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligidan dalolat beradi. Bu esa bizni ildizlari ming yilliklarga borib taqaluvchi tariximizni mukammal tadqiq etishga hamda barkamol avlodni ayni shu ruhda tarbiyalashga undaydi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda har tamonlama barkamol shaxsni tarbiyalash vazifasi kun tartibiga qo'yilgan. Bu maqsadni amalga oshirishda esa tarix fani be'minnat va bevosita xizmat qiladi.

O'quvchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanib o'quv-tarbiya jarayonini samaradorligi va sifatini oshirish talablarini qo'ymoqda. Ayniqsa, tarix fanini o'qitish asosida vatanparvar, miliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida shakllangan har tamonlama yetuk barkamol insonlarni tarbiyalash masasalarni hal qilish va





eng qulay va samarali o'qitish usullarini amaliyotga tadbiiq qilish muhim vazifalardan sanaladi.

Turli predmetlarni o'qitishda yangi pedagogik, innovatsion, interfaol texnologiyalariga asoslangan ta'lim, an'anaviy ta'limga qaraganda ancha yuqori samara berishi kun sayin o'z tasdig'ini topmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagifarovon bo'ladi. 3-jild.- T.: "O'zbekiston", 2019. - 400 b.

2. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild.- T.: "O'zbekiston", 2020. - 400 b.

3. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni.

5. Topildiev V. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari. - Toshkent: "Universitet". 2015. - 245b.

6. Alimova D.F., Ilhomov Z. Tarix fani metodologiyasi. T., 2018.

7. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 167-168.

8. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Nasirdinova, M. H. Q. (2022). APPLICATION OF ICT IN EDUCATION AND TEACHING TECHNOLOGIES. *Scientific progress*, 3(4), 738-740.


9. Minamatov, Y. E. U. (2021). APPLICATION OF MODULAR TEACHING TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY. *Scientific progress*, 2(8), 911-913.

10. Минаматов, Ю. (2021). УМНЫЕ УСТРОЙСТВА И ПРОЦЕССЫ В ИХ ПРАКТИЧЕСКОЙ ЭКСПЛУАТАЦИИ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 1(9), 875-879.

11. Okhunov Dilshod Mamatzhonovich, Okhunov Mamatjon Khamidovich, & Minamatov Yusupali Esonali o'g'li. (2022). DIGITAL ECONOMY: ESSENCE, FEATURES AND STAGES OF DEVELOPMENT. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(04), 355-359

12. Avazjon o'g'li, V. D., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). Use and Importance of Three-Dimensional Images in Fields. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(2), 1-4.

13. G'ofurovich, T. X. A., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). Computer Using Dynamic System Modelling Environments. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(2), 9-13.





14. Avazjon o'g'li, V. D., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). Prospects for the Development of the 3D Modeling Process. Texas Journal of Engineering and Technology, 7, 78-79.

15. Komiljonovna, M. L., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). Adjuster Synthesizing for the Heat Process with Matlab. Texas Journal of Engineering and Technology, 7, 63-

